

---

O'zbekistonda Prezident universiteti tashkil etiladi

O'zbekistonda Prezident universiteti tashkil etiladi. Bu haqda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi rahbariyati va oliy o'quv yurtlari rektorlari ishtirokida bo'lib o'tayotgan matbuot anjumanida ma'lum qilindi.

O'zAning [yozishicha](#), O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida Prezident universitetini tashkil etish ham ko'zda tutilgan.

Prezident universiteti — xalqaro standartlar va milliy an'analar uyg'unligida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar, professional kadrlarni tayyorlovchi yetakchi ta'lim va ilm-fan markaziga aylanadi. Shuningdek, Prezident universitetida ta'limga kredit-moduli tizimi joriy qilinadi.

Eslatib o'tamiz, 2019-2020 o'quv yilidan O'zbekiston Prezident maktablari faoliyat yurita boshladi.

[www.vodiy24](#) saytidan olindi

2019-10-17 18:01:51